

**I SHO'BA**  
**TA'LIMNING INNOVATSION RIVOJLANISHI:**  
**KECHA VA BUGUN**

**O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI**  
**XALQAROLASHTIRISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Muydinov Dilshod Najmiddinovich*

*Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,*

*Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari,*

*siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashtirish jarayonidagi hozirgi holati kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda oliy ta'lim tizimida so'nggi yillarda kuzatilayotgan institutsional o'zgarishlar, talabalar sonining ortishi, xorijiy talabalar ulushi va xalqaro hamkorlik dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Qo'shma ta'lim dasturlari, akademik mobillik, xalqaro reytinglardagi natijalar va ilmiy-tadqiqot faoliyatining globallasuvi omillar sifatida baholanadi. Maqolada xalqarolashtirishning ustuvor yo'nalishlari, ta'lim sifatini modernizatsiya qilish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va ilmiy integratsiyani kuchaytirish mexanizmlari tahlil qilingan. Viza jarayonlari murakkabligi, moliyalashtirishdagi muammolar, ingliz tili kompetensiyasining pastligi va infratuzilma muammolari kabi asosiy to'siqlar aniqlangan. Xalqaro tajribalar asosida tizimni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, xalqarolashtirish, akademik mobillik, xalqaro hamkorlik, global reytinglar, qo'shma ta'lim dasturlari, xalqaro akkreditatsiya, ta'lim siyosati.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИИ**  
**ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ**  
**УЧРЕЖДЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА**

***Муйдинов Дилишод Нажмиiddинович***

*заместитель начальника управления международного сотрудничества  
и рейтингов Министерства высшего образования, науки и инноваций,  
доктор политических наук (DSc), доцент*

***Аннотация.*** В данной статье представлен комплексный анализ текущего состояния процессов интернационализации в высших образовательных учреждениях Узбекистана. На основе статистических данных в исследовании освещаются институциональные изменения в системе высшего образования за последние годы, рост числа студентов, доля иностранных студентов и динамика международного сотрудничества. В качестве ключевых факторов рассматриваются совместные образовательные программы, академическая мобильность, результаты в международных рейтингах и глобализация научно-исследовательской деятельности.

В статье проанализированы приоритетные направления интернационализации, механизмы модернизации качества образования, повышения инвестиционной привлекательности и усиления научной интеграции. Выявлены основные препятствия, такие как сложность визовых процессов, проблемы финансирования, низкий уровень компетенции в английском языке и инфраструктурные недостатки. На основе международного опыта представлены предложения и рекомендации по совершенствованию системы.

***Ключевые слова:*** высшее образование, интернационализация, академическая мобильность, международное сотрудничество, глобальные рейтинги, совместные образовательные программы, международная аккредитация, образовательная политика.

**IMPROVING THE PROCESSES OF INTERNATIONALIZATION IN THE  
ACTIVITIES OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN**

***Dilshod Najmiddinovich Muydinov***

*Deputy Head of the Department of International Cooperation and*

*Ratings of the Ministry of Higher Education, Science and Innovation,  
Doctor of Political Sciences (DSc), Associate Professor*

**Abstract.** *This article provides a comprehensive analysis of the current state of internationalization processes in higher education institutions of Uzbekistan. Based on statistical data, the study highlights institutional changes observed in the higher education system in recent years, the increase in student numbers, the share of international students, and the dynamics of international cooperation. Factors such as joint degree programs, academic mobility, results in international rankings, and the globalization of research activities are evaluated.*

*The article analyzes priority areas of internationalization, mechanisms for modernizing the quality of education, increasing investment attractiveness, and strengthening scientific integration. Key obstacles such as the complexity of visa processes, financing issues, low English language proficiency, and infrastructural challenges are identified. Based on international experience, proposals and recommendations for improving the system are provided.*

**Keywords:** *higher education, internationalization, academic mobility, international cooperation, global rankings, joint degree programs, international accreditation, educational policy.*

**Kirish.** O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini xalqarolashtirish jarayonlarini takomillashtirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Yangi O'zbekiston" strategiyasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni global taraqqiyot jarayonlariga integratsiya qilish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida oliy ta'lim muassasalarini xalqarolashtirish mamlakatning raqobatbardoshligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning omili hisoblanadi. Globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim sifati xalqaro standartlarga mos kelishi, talabalar va o'qituvchilarning xalqaro harakati kuchayishi zarur. Xalqarolashtirish jarayoni orqali xorijiy universitetlar

bilan qo'shma dasturlar, ilmiy tadqiqotlar, talabalar va professor-o'qituvchilar almashinuvi kengaymoqda. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi, mamlakatga xalqaro talabalar oqimini jalb qiladi va O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi ta'lim markaziga aylantirishga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda oliy ta'lim qamrovini 50 foizga etkazish<sup>1</sup>, xususiy OTMLar sonini ko'paytirish, QS va THE reytinglariga kirishga tayyorgarlik ko'rish kabi vazifalar aynan xalqarolashtirish bilan bog'liq. Xorijiy tajribani o'zlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ilmiy salohiyatni yuksaltirish dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashtirish jarayonlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

### ***O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqarolashtirishdagi hozirgi holati.***

O'zbekiston oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda tub islohotlar natijasida xalqarolashtirish jarayonida sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. Xalqarolashtirish deganda oliy ta'lim muassasalarining xorijiy hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro talabalar va professor-o'qituvchilarni jalb qilish, qo'shma ta'lim dasturlarini rivojlantirish, xalqaro reytinglarda o'rin egallash va ta'lim sifatini global standartlarga moslashtirish tushuniladi. Ushbu jarayon nafaqat ta'lim tizimining ichki modernizatsiyasini, balki mamlakatning global bilim iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ham ta'minlovchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda mamlakatda 207 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritmoqda<sup>2</sup>, ularda 2024/2025-o'quv yilida 1 million 432,8 ming nafar talaba tahsil olmoqda<sup>3</sup>. Bu ko'rsatkich 2015/2016-o'quv yilidagi 264,3 ming nafarga nisbatan 5,4 barobar oshgan. Mazkur o'sish oliy ta'limga bo'lgan talabning keskin ortganini va davlat tomonidan ta'lim qamrovini kengaytirishga qaratilgan siyosatning samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xalqarolashtirishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bu xorijiy talabalar soni

<sup>1</sup> 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

<sup>2</sup> O'tgan yetti yilda mamlakatimizda universitetlar soni 219 taga yetdi. (05.06.2025). UZA

<https://uza.uz/uz/posts/otgan-yetti-yilda-mamlakatimizda-universitetlar-soni-219-taga-yetdi> 727578

<sup>3</sup> Oliy ta'lim tashkilotlarida qancha talaba tahsil olayotgani aytili. (28.05.2025) <https://kun.uz/news/2025/05/28/oliy-talim-tashkilotlarida-qancha-talaba-tahsil-olayotgani-aytili>

2024/2025-o'quv yilida 12,5 ming nafarga etdi<sup>1</sup> (2017–2018-yildagi 1,3 ming nafarga nisbatan 9,6 barobar ko'paygan). Ushbu ko'rsatkich 2025/2026- o'quv yilida 23,5 ming nafardan oshdi.<sup>2</sup> Biroq jami talabalar soniga nisbatan xorijiy talabalar ulushi hozircha atigi 1,64% ni tashkil etadi, bu esa 2030-yilga belgilangan 15% maqsadidan ancha orqada qolayotganini ko'rsatadi. Demak miqdoriy o'sishga qaramay tizim hali ham sifat va ulush jihatidan global standartlarga to'liq moslashmagan.

Xalqaro hamkorlik shartnomalari bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. 2025/2026-o'quv yilida respublikamizning 59 ta oliy ta'lim muassasalarida 22 ta xorijiy mamlakatlarning 119 ta oliygohlari bilan 375 ta qo'shma ta'lim dasturlari asosida o'quv jarayoni tashkil etilgan. Ushbu dasturlarda 10 ming nafardan ortiq talabalar tahsil olmoqda. 2024-yilda TOP-500 xorijiy universitetlar bilan 15 ta yangi qo'shma dastur ishga tushirildi, 39 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tdi<sup>3</sup>. Ko'plab universitetlar 150 dan ortiq xorijiy muassasa bilan shartnomalar tuzgan. Bu ko'rsatkichlar institutsional hamkorlikning kengayib borayotganini va universitetlararo aloqalarning tizimli tus olayotganini anglatadi.

Professor-o'qituvchilar almashinuvi ham xalqarolashtirishning muhim komponenti sifatida rivojlanmoqda. 2024-yilda 4970 nafar o'qituvchi xorijda malaka oshirdi, 2510 nafar xorijiy mutaxassis o'quv jarayoniga jalb etildi<sup>4</sup>. Ushbu jarayon bilim va tajriba transferi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik mobillikning kengayishi bir tomondan mahalliy kadrlarning kompetensiyalarini oshirsa, ikkinchi tomondan ta'lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi. Ushbu ko'rsatkichlarning barqarorligi va ularning tizimli natijalarga aylanishi hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Xalqaro reytinglardagi o'rinlar xalqarolashtirishning asosiy mezoni hisoblanadi. QS World University Rankings 2026 da O'zbekiston universitetlari sezilarli yutuqlarga erishdi: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti 469-o'rinni egallab, TOP-500ga kirdi, Mirzo

<sup>1</sup> O'zbekistonda 10 yilda xorijlik talabalar soni qariyb 18 barobarga oshdi. (29.04.2025)

<https://kun.uz/news/2025/04/29/ozbekistonda-10-yilda-xorijlik-talabalar-soni-qariyb-18-barobarga-oshdi>

<sup>2</sup> O'zbekistonda eng ko'p qaysi mamlakat talabalari tahsil olayotgani ma'lum qilindi (12.05.2025)

<https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/ozbekistonda-eng-kop-qaysi-mamlakat-talabalari-tahsil>

<sup>3</sup> Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilda o'z faoliyatiga oid hisoboti (api-portal.gov.uz dan olindi)

<sup>4</sup> Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilda o'z faoliyatiga oid hisoboti (api-portal.gov.uz dan olindi)

Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti esa 721–730-o'rinlarni band etdi<sup>1</sup>. QS reytinglarida (2026) 7 ta universitet 12 ta fan yo'nalish bo'yicha TOP-1000 ga kirdi (Toshkent davlat texnika universiteti neft va gaz sanoati sohasida 101–150-o'rinlar, Toshkent davlat yuridik universiteti huquqshunoslik sohasida 251–300-o'rinlar)<sup>2</sup>. Times Higher Education (THE) World University Rankings 2026 da "TIQXMMI" milliy tadqiqot universiteti 501-600-o'rinni, Toshkent davlat texnika universiteti 1001–1200-o'rinni, O'zbekiston Respublikasi Milliy universiteti esa 1201–1500-o'rinlarni egalladi. Ushbu natijalar 2025-yilgacha faqat 2 ta universitet QS reytingiga kirgan holat bilan solishtirganda sezilarli o'zgarishlarni ifodalaydi.

Xalqaro reytinglarning "Bitiruvchilar yutuqlari" (Graduate Outcomes) indikatori doirasida O'zbekistonning 4 ta etakchi oliy ta'lim muassasasi dunyoning TOP-700 taligiga kirgani kuzatilmoqda. Toshkent davlat texnika universiteti 540-o'rinni, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 545-o'rinni, "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti 644-o'rinni hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 660-o'rinni egallagan<sup>3</sup>. Ushbu natijalar oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning xalqaro mehnat bozorida talabgirliги ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq reytinglarda yuqori pog'onalariga ko'tarilish uchun ilmiy tadqiqotlar hajmi, xalqaro nashrlar soni va akademik xodimlarning global tajribasi kabi ko'rsatkichlarni oshirish zarur.

### ***Xalqarolashtirishning asosiy yo'nalishlari va mexanizmlari.***

Oliy ta'lim tizimini xalqarolashtirish zamonaviy global ta'lim makoniga integratsiyalashuvning muhim sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida mazkur jarayon kompleks islohotlar orqali amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Ushbu konsepsiyaga muvofiq xalqarolashtirish ta'lim sifati, ilmiy salohiyat va institutsional

<sup>1</sup> O'zbekiston oliy ta'limida tarixiy natija: QS World University Rankings 2026 ro'yxatiga 7 ta OTM kiritildi (19.06.2025).

O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali <https://gov.uz/oz/edu/news/view/62336>

<sup>2</sup> O'zbekistonning 7 ta oliygohi dunyoning top-1000 universitetlari ro'yxatidan joy oldi (25.03.2026) <https://talimxabarlari.uz/69474/>

<sup>3</sup> O'zbekiston oliy ta'limida tarixiy natija: QS World University Rankings 2026 ro'yxatiga 7 ta OTM kiritildi <https://tuit.uz/post/ozbekiston-oliy-talimida-tarixiy-natija-qs-world>

raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan tizimli yo'nalishlar va mexanizmlar asosida olib boriladi<sup>1</sup>.

Oliy ta'limda raqobat muhitini shakllantirish xalqarolashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish hamda nufuzli xorijiy universitetlar filiallarini ochish orqali amalga oshiriladi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim tizimiga investitsiyalarni jalb etish bilan birga, global akademik standartlarning joriy etilishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi yo'nalish bu ta'lim mazmunini xalqaro standartlarga moslashtirishdir. Kredit-modul tizimiga o'tish, individual ta'lim trayektoriyalarini joriy etish, STEAM yo'nalishlarini rivojlantirish hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayoni modernizatsiya qilinadi. Xorijiy tillarda o'qitiladigan fanlar ulushini oshirish va zamonaviy o'quv adabiyotlarini joriy etish global bilimlar oqimiga integratsiyani kuchaytiradi.

Uchinchi yo'nalish sifatida akademik mobillik va xalqaro hamkorlikni kengaytirish belgilangan. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma dasturlarni amalga oshirish, professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvini rivojlantirish, shuningdek xorijiy mutaxassislarni jalb etish orqali ilmiy va pedagogik salohiyat oshiriladi. "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali xorijda ta'lim olish va malaka oshirish tizimi ham ushbu jarayonning muhim mexanizmlaridan biridir.

To'rtinchi yo'nalish bu ilmiy-tadqiqot faoliyatini xalqarolashtirish sanaladi. "Universitet 3.0" konsepsiyasini joriy etish, texnoparklar, startaplar va innovatsion markazlarni tashkil etish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi ta'minlanadi. Xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish, Scopus va ScienceDirect kabi bazalarga kirish, hamda h-indeks ko'rsatkichlarini oshirish ilmiy natijalarning global miqyosda tan olinishini ta'minlaydi.

Beshinchi yo'nalish bu oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro imijini oshirishdir. Jahon reytinglarida yuqori o'rinlarni egallash, "Study in Uzbekistan" loyihasini amalga oshirish, xorijiy talabalarni jalb etish hamda ta'lim

---

<sup>1</sup> "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni <https://lex.uz/docs/-4545884>

xizmatlari eksportini rivojlantirish orqali mamlakat ta'lim tizimi global miqyosda tanitiladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarini takomillashtirish va xalqaro PR-loyihalarni amalga oshirish ham muhim rol o'ynaydi.

Mazkur yo'nalishlarni amalga oshirishda bir qator mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik mustaqillikni bosqichma-bosqich kengaytirish, ta'lim sifatini ichki nazorat va baholash tizimlari orqali ta'minlash, grantlarni tanlov asosida taqsimlash hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish shular jumlasidandir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish, gender tengligini ta'minlash va uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish ham xalqarolashtirishning institutsional asoslarini mustahkamlaydi.

Erasmus+ va Fulbright Program kabi xalqaro dasturlar talabalar va o'qituvchilarning qisqa va uzoq muddatli akademik almashinuvini ta'minlaydi. Bu dasturlar orqali ishtirokchilar xorijiy universitetlarda tahsil olish, ilmiy tadqiqot olib borish hamda pedagogik tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Akademik mobillikning asosiy natijasi sifatida bilim transferi, madaniyatlararo kompetensiyalar rivoji va ta'lim sifatining oshishi kuzatiladi. Qo'shma ta'lim dasturlari (double degree dasturlari ham deb nomlanadi) ikki yoki undan ortiq universitetlar o'rtasidagi hamkorlik asosida amalga oshiriladi va talabaga bir vaqtning o'zida ikki diplom olish imkonini beradi. Ushbu model Boloniya jarayonining asosiy tamoyillariga mos keladi va ta'lim standartlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Double degree dasturlari orqali talabalar turli akademik muhitlarda o'qib, global kompetensiyalarga ega bo'ladi. Xalqaro ilmiy konsorsiumlar, qo'shma grant loyihalari va ilmiy markazlar orqali universitetlar global ilmiy tarmoqlarga integratsiyalashadi. Bu jarayonda ilmiy natijalarni birgalikda yaratish, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Scopus va Web of Science bazalarida indekslanadigan jurnallarda qo'shma maqolalar chop etish ilmiy nufuzni oshiradi. ABET va ASIIN kabi tashkilotlar tomonidan beriladigan akkreditatsiyalar ta'lim dasturlarining xalqaro standartlarga mosligini tasdiqlaydi. Akkreditatsiya jarayoni o'quv dasturlari sifati, o'qituvchilar malakasi, infratuzilma va natijaviylik ko'rsatkichlarini baholashni o'z ichiga oladi. Natijada bitiruvchilarning diplomlari xalqaro miqyosda tan olinadi va ularning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi oshadi. Ingliz tili global akademik kommunikatsiya

vositasi sifatida ilmiy axborot almashinuvi va xalqaro hamkorlikni osonlashtiradi. Ingliz tilida o'qitiladigan dasturlar sonining ortishi xorijiy talabalarni jalb etish va ta'lim eksportini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchilarning til kompetensiyasini oshirishni, metodik tayyorgarlikni kuchaytirishni talab etadi.

### *Xalqaro tajribalar.*

Yaponiya oliy ta'limni xalqarolashtirishda tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llagan davlatlardan biri hisoblanadi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan asosiy dasturlar - "Global 30 Project" (2009) va keyinchalik uning davomi sifatida "Top Global University Project" (2014) – mamlakat universitetlarini global raqobatbardoshlikka chiqarishga qaratilgan.

Bu dasturlar doirasida University of Tokyo, Kyoto University kabi etakchi universitetlarda ingliz tilidagi dasturlar soni keskin oshirildi, xorijiy professor-o'qituvchilar jalb etildi va xalqaro akademik muhit shakllantirildi. Yaponiyada xorijiy talabalar soni 2010-yilda -141 ming bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 300 mingdan oshdi (hukumat maqsadi ham 300 ming edi). Ingliz tilida to'liq o'qitiladigan dasturlar soni 200 dan ortiq universitetda joriy etildi. "Top Global University Project" doirasida 37 ta universitet davlat tomonidan moliyalashtirildi. Xalqaro talabalar ulushi ayrim etakchi universitetlarda 10–20% gacha etdi. Ta'lim eksporti va xalqaro talabalar hissasi Yaponiya iqtisodiyotiga yiliga taxminan 3–4 milliard AQSH dollari (taxminan 0,5–0,7% YaIMga teng ta'sir) kiritmoqda.

Singapur ham oliy ta'limni xalqarolashtirishda eng muvaffaqiyatli misollardan biri hisoblanadi. Hukumat "Global Schoolhouse Initiative" (2002) dasturi orqali mamlakatni global ta'lim markaziga aylantirishni maqsad qilgan. Bu doirada National University of Singapore kabi universitetlar xorijiy talabalarni faol jalb qilish, ingliz tilida o'qitish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga erishgan. Natijada Singapur 75 mingga yaqin xorijiy talabani jalb qilgan va ta'lim sohasi yalpi ichki mahsulotga taxminan 5 foiz hissa qo'shgan. Asosiy strategiyalar quyidagilardan iborat: xorijiy etakchi universitetlar bilan strategik hamkorliklar, "internationalization at home" modeli orqali mahalliy talabalarni global muhitga tayyorlash hamda davlat tomonidan

grantlar va soliq imtiyozlari orqali moliyaviy qo'llab-quvvatlash<sup>1</sup>. Singapur modeli selektiv yondashuvga asoslangan bo'lib, sifatni maksimal darajada ta'minlash bilan birga milliy identifikatsiyani saqlashga intiladi.

Malayziya xalqarolashtirishni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish vositasi sifatida ko'radi. National Higher Education Strategic Plan (2007–2020) va Internationalisation Policy (2011) hujjatlarida oltita ustuvor yo'nalish belgilangan: akademik mobilitet, dasturlarni modernizatsiya qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyati, boshqaruv tizimi va ijtimoiy integratsiya<sup>2</sup>. Malayziya xususiy oliy ta'lim sektorini faol rivojlantirib, 2025-yilda 250 ming xorijiy talabani jalb qilishni rejalashtirgan edi. "Malaysia's Global Reach" tashabbusi orqali xalqaro marketing va bilim almashinuvi tizimi rivojlantirilgan. Natijada mamlakat Janubi-Sharqiy Osiyoda eng asosiy ta'lim markaziga aylangan. Ingliz tilida o'qitish sifati va talabalar moslashuvi kabi muammolar ham kuzatilgan. Malayziya modelining asosiy kuchi bu davlat siyosati va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikdir.

Qozog'iston Markaziy Osiyoda xalqarolashtirish bo'yicha etakchi davlatlardan biri hisoblanadi. 2010-yilda Boloniya jarayoniga qo'shilishi, Nazarbayev University tashkil etilishi va "Bolashak" stipendiya dasturi institutsional o'zgarishlar sifatida baholanadi. So'nggi yillarda mamlakatda 36 dan ortiq xorijiy universitet filiallari (Coventry, De Montfort, KAIST va boshqalar) ochilgan. Davlat tomonidan er ajratish, soliq imtiyozlari va grantlar orqali investorlar jalb qilinmoqda. Natijada xorijiy talabalar soni sezilarli darajada oshgan va 2025-yilda 11 foizlik o'sish qayd etilgan. Qozog'istonning asosiy strategiyalari: ingliz tilida o'qitish tizimini kengaytirish, xorijiy professorlarni jalb qilish (Nazarbayev Universityda 85 foiz o'qituvchilar xorijlik), hamda qo'shma diplom dasturlarini rivojlantirish<sup>3</sup>. Xususiy oliy ta'lim muassasalarining institutsional zaifligi hali ham muammo bo'lib qolmoqda.

<sup>1</sup> Daquila, T. C. (2013). Internationalizing higher education in Singapore: Government policies and the NUS experience. *Journal of Studies in International Education*, 17(5), 629–647

<sup>2</sup> Amzat, I. H., Mohd Ali, H., Ibrahim, M. B., Othman, A., Bin Salleh, M. J., & Alade Najimdeen, A. H. (2023). Internationalization of higher education, university quality service, and international students' loyalty in Malaysia. *SAGE Open*, 13(4)

<sup>3</sup> Yojana Sharma. (2026, February 2). New phase in HE internationalisation puts onus on quality. *University World News*. <https://www.universityworldnews.com/post-mobile.php?story=20260202154925187>

Germaniya oliy ta'lim tizimi tarixan sifat va ochiqlikka asoslangan model sifatida tanilgan. Xalqarolashtirish jarayonida DAAD muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashkilot talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilar mobilligini moliyalashtirib, global akademik aloqalarni mustahkamlaydi. Germaniyada Humboldt tamoyillari (tadqiqot va o'qitish birligi) saqlangan holda xalqaro hamkorlik kengaytirilgan. Mamlakat 150 dan ortiq davlat bilan 300 dan ziyod universitetlararo hamkorlik aloqalariga ega. 2024–2034-yillarga mo'ljallangan yangi strategiya to'rtta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga oladi: akademik mobilitetni oshirish, huquqiy bazani takomillashtirish, global hamkorlikni chuqurlashtirish va raqamli transformatsiya<sup>1</sup>. Germaniya pullik ta'limdan voz kechgan holda sifat va ochiqlikka urg'u beradi, bu esa xorijiy talabalarni jalb qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. "Internationalisation in Higher Education for Society" (IHES) dasturi orqali jamiyat manfaatlariga yo'naltirilgan yondashuv shakllantirilgan.

Mazkur mamlakatlar tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, xalqarolashtirishning universal modeli mavjud emas, biroq umumiy tamoyillar mavjud. Singapur va Malayziya iqtisodiy samaradorlik va ta'lim eksportiga urg'u beradi, Qozog'iston tez institutsional modernizatsiya va xorijiy filiallar ochishga tayanadi, Germaniya esa sifat, akademik erkinlik va barqarorlik modelini ilgari suradi. Umumiy jihatlar quyidagilardan iborat: davlat tomonidan aniq strategiyaning mavjudligi, ingliz tilida o'qitishning kengaytirilishi, grant va stipendiya tizimlari, xalqaro hamkorliklarning rivojlanishi. Farqlar esa institutsional model va ustuvor yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Shuningdek, barcha mamlakatlarda "internationalization at home" va raqamli texnologiyalar komponentlardan biri sifatida qaraladi.

**Xulosa.** Xalqaro tajribalar shuni namoyon etadiki, muvaffaqiyatli xalqarolashtirish tizimli va ko'p darajali boshqaruvni talab etadi. Yevropa Ittifoqida Erasmus+ dasturi oliy ta'limni xalqarolashtirishning institutsional modelini shakllantirgan. Ushbu dastur orqali har yili 300 mingdan ortiq talaba va o'qituvchilar almashinuvi amalga oshiriladi, bu esa transmilliy bilim almashinuvini va akademik mobilitetni kengaytiradi. AQShda American Council on Education tomonidan ishlab chiqilgan "Comprehensive

---

<sup>1</sup> New Bund-Länder strategy for the internationalisation of higher education institutions. (2024, July 30). DAAD Brussels. <https://www.daad-brussels.eu/en/2024/07/30/new-bund-laender-strategy-for-the-internationalisation-of-higher-education-institutions/>

Internationalization” modeli esa strategik integratsiyaga asoslanadi. Bu yondashuvga ko‘ra xalqarolashtirish faqat almashinuv dasturlari bilan cheklanmay, balki universitet boshqaruvi, o‘quv dasturlari va ilmiy tadqiqotlarga tizimli ravishda integratsiya qilinadi. Osiyo tajribasi raqamli transformatsiya va global hamkorlikning sinergiyasiga asoslanadi. Universitetlar xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash uchun xorijiy hamkorliklarni va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etgan. Xitoyda esa Double First-Class Initiative orqali universitetlar global ilmiy markazlarga aylantirilmoqda, MOOCs platformalari orqali esa millionlab talabalar qamrab olinmoqda. Ushbu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xalqarolashtirish muvaffaqiyati uchta asosiy omilga bog‘liq: strategik boshqaruv, institutsional hamkorlik va raqamli infratuzilma.

O‘zbekistonda mavjud holat tahlili bu yo‘nalishda ijobiy o‘zgarishlar bilan birga tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Mahalliy universitetlarning global reytinglardagi ishtiroki past, xorijiy talabalar ulushi etarli emas va akademik dasturlar xalqaro akkreditatsiya talablariga to‘liq javob bermaydi. Shu sababli quyidagi strategik takliflarni ilgari suramiz:

✓ *Birinchiidan, oliy ta’lim muassasalarida “xalqarolashtirish indeksi”ni joriy etish zarur. Bu indeks talabalar va professor-o‘qituvchilar mobiliteti, qo‘shma dasturlar soni, xalqaro grantlar hajmi va ilmiy hamkorlik ko‘rsatkichlari asosida shakllantiriladi. Ushbu indikatorlar universitetlarning samaradorligini obyektiv baholash imkonini beradi.*

✓ *Ikkinchiidan, “Internationalization at Home” konsepsiyasini rivojlantirish lozim. Bu yondashuvga ko‘ra barcha talabalar xorijga chiqmasdan turib ham xalqaro tajribaga ega bo‘lishi mumkin. Masalan xorijiy professorlarning onlayn ma’ruzalari, qo‘shma virtual loyihalar va ikki tomonlama akademik kurslar joriy etiladi.*

✓ *Uchinchiidan, universitetlarni global reyting tizimlariga integratsiyalash zarur. QS World University Rankings va Times Higher Education kabi reytinglarda ishtirok etish ilmiy nufuzni oshirish bilan birga xalqaro talabalarni jalb qilishning muhim instrumenti hisoblanadi. Buning uchun ilmiy maqolalar sonini oshirish, xalqaro jurnallarda chop etishni rag‘batlantirish va ilmiy-tadqiqot infratuzilmasini kuchaytirish zarur.*

Raqamli transformatsiya esa ushbu strategik yo'nalishlarning katalizatori sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy nazariyalarga ko'ra raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini nafaqat optimallashtiradi, balki uning strukturaviy paradigmasini ham o'zgartiradi. Xalqaro amaliyotda Collaborative Online International Learning modeli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu model orqali turli davlatlar talabalari birgalikda virtual loyihalarda ishtirok etadi, bu esa transmilliy kompetensiyalarni shakllantiradi. Coursera va edX kabi MOOCs platformalari global ta'lim makonini kengaytirdi. O'zbekiston sharoitida bu platformalarni milliy ta'lim tizimiga integratsiya qilish, mahalliy universitetlar kurslarini global auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi. Amaliy jihatdan quyidagi raqamli vositalarni joriy etish lozim:

- HEMIS yoki LMS tizimlari (Moodle, Blackboard) orqali masofaviy xalqaro dasturlarni kengaytirish;
- Sun'iy intellekt va big data asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish;
- VR/AR texnologiyalari orqali virtual laboratoriyalar yaratish;
- Open Access elektron kutubxonalarini xalqaro tarmoqlarga ulash.

Davlat siyosati darajasida xalqarolashtirish bo'yicha milliy "roadmap" ishlab chiqish va uni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash; xorijiy universitetlar filiallarini ko'paytirish va ularni innovatsion infratuzilma bilan ta'minlash; professor-o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish bo'yicha majburiy dasturlarni joriy etish kabi tizimli choralar zarur. Institutsional darajada esa universitet boshqaruvida to'liq KPI tizimini joriy etish, xalqaro ofislarni raqamli platformalar bilan integratsiyalash va virtual almashinuv dasturlarini kengaytirish talab etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni
2. O'tgan etti yilda mamlakatimizda universitetlar soni 219 taga etdi. (05.06.2025). UZA [https://uza.uz/uz/posts/otgan-yetti-yilda-mamlakatimizda-universitetlar-soni-219-taga-yetdi\\_727578](https://uza.uz/uz/posts/otgan-yetti-yilda-mamlakatimizda-universitetlar-soni-219-taga-yetdi_727578)

3. Oliy ta'lim tashkilotlarida qancha talaba tahsil olayotgani aytili. (28.05.2025)  
<https://kun.uz/news/2025/05/28/oliy-talim-tashkilotlarida-qancha-talaba-tahsil-olayotgani-aytili>
4. O'zbekistonda 10 yilda xorijlik talabalar soni qariyb 18 barobarga oshdi. (29.04.2025) <https://kun.uz/news/2025/04/29/ozbekistonda-10-yilda-xorijlik-talabalar-soni-qariyb-18-barobarga-oshdi>
5. O'zbekistonda eng ko'p qaysi mamlakat talabalari tahsil olayotgani ma'lum qilindi (12.05.2025)<https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/ozbekistonda-eng-kop-qaysi-mamlakat-talabalari-tahsil>
6. O'zbekistonda nechta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritadi? (14.02.2024) UZA  
[https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-nechta-oliy-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi\\_567669](https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-nechta-oliy-talim-muassasasi-faoliyat-yuritadi_567669)
7. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilda o'z faoliyatiga oid hisoboti (api-portal.gov.uz dan olindi)
8. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yilda o'z faoliyatiga oid hisoboti (api-portal.gov.uz dan olindi)
9. O'zbekiston oliy ta'limida tarixiy natija: QS World University Rankings 2026 ro'yxatiga 7 ta OTM kiritildi (19.06.2025). O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali <https://gov.uz/oz/edu/news/view/62336>
10. O'zbekistonning 7 ta oliygohi dunyoning top-1000 universitetlari ro'yxatidan joy oldi (25.03.2026) <https://talimxabarlari.uz/69474/>
11. O'zbekiston oliy ta'limida tarixiy natija: QS World University Rankings 2026 ro'yxatiga 7 ta OTM kiritildi <https://tuit.uz/post/ozbekiston-oliy-talimida-tarixiy-natija-qs-world>
12. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni <https://lex.uz/docs/-4545884>
13. Rakhmonaliev, A. (2024). Overcoming challenges in attracting international students to Uzbek universities. Journal of International Scientific Research, 1(5), 167-174

14. Dunn, K., & Iwaniec, J. (2023). English impact: An evaluation of English language capability in Uzbekistan. British Council.
15. Ўзбекистон глобал инглиз тилини билиш рейтингда 104-ўринни эгаллади. (23.01.2026). <https://platina.uz/2026/01/23/ozbekiston-global-ingliz-tilini-bilish-reytingida-104-orinni-egalladi>
16. Rakhmonaliev, A. (2024). Overcoming challenges in attracting international students to Uzbek universities. Journal of International Scientific Research, 1(5), 167-174
17. Daquila, T. C. (2013). Internationalizing higher education in Singapore: Government policies and the NUS experience. Journal of Studies in International Education, 17(5), 629–647
18. Amzat, I. H., Mohd Ali, H., Ibrahim, M. B., Othman, A., Bin Salleh, M. J., & Alade Najimdeen, A. H. (2023). Internationalization of higher education, university quality service, and international students' loyalty in Malaysia. SAGE Open, 13(4)
19. Yojana Sharma. (2026, February 2). New phase in HE internationalisation puts onus on quality. University World News. <https://www.universityworldnews.com/post-mobile.php?story=20260202154925187>
20. New Bund-Länder strategy for the internationalisation of higher education institutions. (2024, July 30). DAAD Brussels. <https://www.daad-brussels.eu/en/2024/07/30/new-bund-laender-strategy-for-the-internationalisation-of-higher-education-institutions/>